

E'TIQOD ORTIDAGI YASHIRIN AXLOQSIZLIK: MULLA ABDURAHMON VA TARTYUF

Jo'rayeva Sevinch

*Alisher Navo'i nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universitrtining
tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti
4-bosqich talabasi.*

jorayevasevinch699@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek romanchiligi asoschilaridan biri bo'lgan Abdulla Qodiriyning „Mehrobdan Chayon“ va Molyerning „Tartyuf“ asarlari misolida insonlarning ichki yashirin tuyg'ulari, nafs bilan kurashi, din niqobi ostida yo'l qo'yilgan axloqsizliklar qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada maqsadga erishish qing'ir, egri yo'llar bilan emas balki ezgu niyat, sabr, astoydil mehnat va chin muhabbat bilan amalga oshirilishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar : *din, niqob, nafs, ezgulik va yovuzlik, chin muhabbat, firibgarlik, ikkiyuzlamachilik*

Din insoniyat tarixida doimo muhim o'rin tutib kelgan bo'lib, u jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy va axloqiy jihatlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi asosiy farqlardan biri aynan dinning jamiyatdagi o'rniga bog'liqdir. Sharq madaniyatida din davlat va jamiyat hayotining markaziy qismi sifatida namoyon bo'lib, inson ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblangan. Islom, buddizm va hinduizm kabi diniy an'analar Sharq xalqlari hayotida hal qiluvchi o'rin tutgan. G'arbda esa diniy tafakkur o'rta asrlardan boshlab bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Xususan, nasroniylik Yevropa madaniyatining asosiy negizlaridan biri bo'lib, Uyg'onish davridan keyin sekulyarlik jarayoni kuchaygan. Ma'rifatparvarlik davrida

din va davlat alohida tushunchalar sifatida qaralib, ilm-fan va ratsional fikrlash yetakchi o‘ringa chiqdi.

Din insonlarni doimo ezgu niyat va to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. Shu yo‘l davomida bandaning ruhini pok , iymon e‘tiqodini mustahkam qilishga yordam beradi. Sabr-qanoatli bo‘lishi uchun hayot yo‘li davomida turli xil sinovlar va qiyinchiliklarga duchor qilinadi. Ushbu mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tganlar sabr va shukur qilishni o‘rganadilar. Albatta shukur va sabrning mukofotiga yetadilar. Ammo sinovlardan qochish yoki oson , firib yo‘lni tanlash insonni qorong‘u va berk ko‘chalarga etib qo‘yadilar.

Maqola mavzusi uchun tanlangan ushbu ikki asarda XIX- XVII asr Sharq va G‘arb mamlakatlaridagi davr hukmi , shu bilan bir qatorda diniy ahvol yoritilgan.

O‘zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriyning „Mehrobdan Chayon “ asarida XIX asr hodisalari Xudoyorxon va munshiylar hayoti, xonning noodil siyosati , insofsiz ulamolarning xon nomidan o‘z foydasi yo‘lida foydalanib qing‘ir ishlarni amalga oshirishi , davrning og‘irligi xalqning yomon ahvoli haqida so‘z boradi.

Molyerning shoh asari bo‘lmish „Tartyuf “ komidiyasi XVII asr G‘arbda xristian cherkovi kirdikorlarini hazil hajviya orqali ochiqlab bergan. Bu paytda cherkovlar butun boshqaruvni o‘z qo‘llariga olishni aholini dinni niqob ostiga olgan holda o‘z g‘oyalari yo‘lida ergashtirishni maqsad qilgan va yangi fikrlikka butkul qarshi edilar lekin o‘z manfaatlari yo‘lida diniy qonun va qadriyatlarga qarshi borar hatto ularni o‘zgartirishga ham qodir edi.

Qodiriy asarni „Mehrobdan chayon“ deb atashi ziyoli ulamolarni qahramon qilib tanlashining maqsadi muqaddas dargoh— sajdagohdan chiqqan, o‘sha dargohga nomunosib, munofiq, qallob, tuban kimsalarga, hasadgo‘y, e‘tiqodsiz kishilarga ishoradir.

Asar tahlili avvalida, „mehrob“ so‘zining ta‘rifini keltirib o‘tsak .Mehrob bu masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy, namoz shu tomonga qarab o‘qiladi; joyning yuqori, to‘r qismi degani.

Romanda Anvar bilan Ra'noning sevgi sarguzashti, Mulla Abdurahmonning Kalonshoh Mirzo va Shahodat Muftining yomonlik ketidan quvib Anvarning porloq yo'liga qarshi bo'lishi, Maktabdor Solih mahdumning yumoristik obrazi adabiyotshunoslar tomonidan alohida e'tirof etiladi.

Asar Solih Mahdumning hovlisidagi tasvir bilan boshlanadi qizi Ra'no xotini Nigorxonim va asrandi o'g'li Anvar. Mahdumning ba'zi xususiyatlari va ularning tashqi ichki sabablarini yozuvchi mohirlik bilan so'zlab beradi. Undan so'ng Anvarning bolaligi, shafqatsiz taqdiri bilan birgalikda kutilayotgan porloq kelajagi, mana shu porloq kelajakdan boxabar bo'lgan Mahdumning qizi Ra'noni Anvarga nikohlab berish istagi va Anvarga berilgan bosh munshiylik lavozimi bu lavozimga anchadan buyon ko'z tikib foyda olishga oshiqib turgan ba'zi amaldorlarni kayfiyatini buzib unga qarash fitnalar hozirlashlari bilan o'sha davrdagi tuzumni kengroq yoritib bera boshlaydi. Anvar va Ra'noning bir- birlariga nisbatan chin sevgilari asarni ushbu she'riy satrlari bilan boshlab beradi:

Agar Farhodning Shirin, bo'lsa Majnunlarning Laylosi Nasib o'lmish menga gulshan aro gullarni ng — Ra'nosi. (Mirzo)

Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning jununidin Ne baxt Ra'no xaridoring talab ahlining — Mirzosi. (Ra'no) va asar so'ngiga qadar bizni tark etmaydi.

Onalar tuqqan bolalarini sizga “tilab-tilab olg'an falonim” deb, otalar “xudoy bergan o'g'ulcha” deb taqdim etadirlar. Ammo bizning Anvar bo'lsa onasining “tilab-tilab olg'ani” emas va otasi ham uni “o'g'ulchag'a” hisoblamag'an edi. Otasining kasbi bo'yoqchilik, hamisha yarim belidan nil suviga cho'milib yotgan bir kambag'al va bir qarich, ikki qarich bolalardan beshtasiga dada edi. Shu besh bolaning yonig'a izzatsiz, hurmatsiz oltinchi “mehmon” bo'lib, bizning Anvar qo'shildi.(snoska berishim kk) Ya'ni Anvar tilab oling'an bola emas, dadasi bilan onasining tilaklariga qarshi, faqat ularning baxtsizlik va qashshoqliqlarig'a xizmat qilg'uchi bo'lib tug'ildi. Asardan keltirilgan ushbu tasvirlar yaqinda bosh munshiy bo'lishi kutilayotgan faqir bir Anvar haqida edi. Lekin o'zining tirishqoqligi, to'g'ri so'zligi, olgan ilmlari va yaxshi fazilatlarini orqasidan u shu o'ringa loyiq ko'rilgan edi. Bundan uning yaqinlari,

Sultonali kabi do'stlar qanchalik quvonsa, bu xabarni eshitgan zahoti tashvishga tushib, u haqida bo'xton tarqatishga ham shunchalik urinadigan kimsalar albatta topildi. Bulardan biri Mulla Abdurahmon. Anvar Salim bo'yoqchining yetimi, faqir bir oiladan chiqqan bola va munshiylikka tayinlandi. Abdurahmon esa ulamolar naslidan, otasi ham ziyoli, amakilari esa Buxoroning katta mudarrislaridan bo'lgan. U ham 15 yoshgacha Solih mahdumning qo'lida ta'lim oladi. Lekin bu ikki yigitning biri xalq sevgan va hatto xon nazariga tushgan mirzaboshi bo'lgan bo'lsa, ikkinchisi ichi qora, ig'vogar, 18 yoshga yetmay ko'plab nomaqbul ishlarga qo'l uradi. U katta amakisi qo'lida tahsil olib yurgan kezlarini yozuvchi „zamona buzuqligi vaqti“ (snoska berish kk) deb izohlaydi: Abdurahmonni haligi to'g'risida juda qattig' nazorat qilar edi. Biroq, domlarning bunday buzuqliqqa qarshi bora olishlari mumkinmi edi? Ularning o'zlari shu “mahram” balosig'a giriftor, ya'ni buzuqliqqa manba' bo'la turib ham yana „zamona buzuqlig'i“dan shikoyat qilishlari o'sha vaqtlardag'i „madrasa mantiqi“g'a hech bir bahssiz sig'a olur edikim, bu to'g'rida menga osila ko'rmangiz. (snoska)

Bundan ko'rinib turibdiki katta madrasalardagi mudarrisning ahvoli unda juda achinarli bo'lgan. Lekin uni asrayman deb o'ylagan katta amakisi boshqalarni chuv tushirganidek unga sezdirmasdan jiyanini nopok yo'llarda adashtiruvchilar topiladi.

Uning bu sirlaridan hamma xabar topgach u Qo'qonga qaytib keladi endi uni zo'rg'a maxallaga imom qila oldilar xolos. Mana shu yerda bir shart bor edi Mulla Abdurahmon uylanishi zarur edi va voqealar Anvar bilan shu yerda tutashadi. U Ra'noga sovchi yuborsa uni Anvarga berishlarini aytib u yuborganlarni qaytaradi. Ohir oqibatda esa “mehrobdagi chayon”ga aylanadi. Abdurahmon obrazi orqali adib ayrim hudbin, qallob, hasadgo'y, munofiq, e'tiqodsiz va tuban kimsalarning asl yuzlarini ochib berishga va ularning muqaddas dargoh – sajdagohdan turib turli jirkanch ishlarga qo'l urganliklarini ko'rsatib berishga muvaffaq bo'lgan. Asar nomi “Mehrobdan chayon” deb atalishi ham bejiz emas. Ta'kidlab o'tkanimizdek, mehrob bu masjid ichidagi sajdagoh joyidir. Chayonning ishi esa hammaga ma'lum bo'lganidek faqat chaqish, zaharli nishini kimgadur yoki nimagadur urish va jarohat yetkazishdir. Ushbu asardagi “chayon” ya'ni Abdurahmon ham o'z nomiga munosib faqat va faqat

yomonlik ketidan quvgan razil bir kimsadir. Bu borada unga sherik bo'lgan Shahodat mufti va Kalonshoh mirzolar ham bor. Bu obrazlar ham garchi sajdadan bosh uzmaydigan, o'zicha "xudojo'y" bo'lishsada, aslida qalbi ig'vo va razolatga to'la kimsalardir. Ularni ham "mehrob chayonlari" deb atasak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu kimsalarni ilmsiz, dinni niqob qilgan munofiqlar deb atasak, hatto butun xalqni boshqarib turgan, barchaga o'rnak bo'luvchi, adolatli bo'lishi lozim bo'lgan podshoh Xudoyorxon ham o'z manfaati yo'lida diniy qonunlarga amal qilmaydi nafsining yo'rig'idan borib Ra'noga uylanmoqchi bo'ladi. Lekin bu sha'riyat jihatdan ham insoniylik jihatidan ham noto'g'ri hisoblanadi. Buni Anvar va shohning orasidagi ushbu suhbat tasdiqlaydi:

— Albatta, — dedi Anvar, — boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib pusulmonchilikdan chiqqach, men pusulmonlik bilan o'lishni o'bdan bildim.

Bu javob Xudoyorni qip-qizil tuska qo'yib, manglayida terlar ko'rindi, g'azab o'ti alanga oldi.

— Sening qig'an ishing pusulmonchilikda bormi, it uvli?

— Musulmonchilikda yuzlab xotin ustiga, bir kambag'al uylanmakchi bo'lg'an qizg'a ham zo'rliq qilish bormi, qiblai olam.(snoska)

Bunday razolat nafaqat Xudoyorxon, balki Amir Umarxon, uning o'g'li Madalixonlar bilan ham yuzaga kelgan.

Keyingi xristian dinini orqasida o'z qabihliklarini amalga oshirishga uringan „Tartyuf“ asari va obraziga to'xtaladigan bo'lsak. U o'zini Organ oilasiga xudojo'y qilib ko'rsatadi. Aslida esa firibgar, ilmsiz, tovlamachi kimsani Organ o'z oilasiga olib kirgan bo'ladi bu yerda Organning qanchalik ilmsizligi ko'rinadi.

Oiladagilar uning firibgarligini aytishsa ham faqat Tartyufni yoqlab qolganlarni „gunohga botgan kimsalar“ deb ataydi. Masalan o'z o'g'li Damisning so'zlariga ham ishonmaydi shunday ulug' zotga tuhmat qilmasligi lozimligini uqtiradi. U Tartyufning dunyo haqidagi bir iqtibosini keltiradi: „Dunyo bu bir uyum go'ng.“

Tartyuf uni allaqachon o'zining noto'g'ri go'yalari bilan zaharlab bo'lgandi, shu boisdan u aytgan har qanday bema'ni so'z ham Organ uchun faylasuflarning fikrlaridanda ma'noli tuyulaverardi.

Yuqorida xonlar misolida aytib o'tilgan nafs borasidagi fikrlar ushbu asar uchun ham birdek tegishli Tartyuf Organning moliga uy joyiga ko'z tikkani yetmagandek, uning rafiqasi Elmiraga nisbatan mayli bo'ladi.

Ushbu asarda hammaga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi firibgarni oshkor qilish uchun reja tuzishni maslahat beruvchi bir oqila ayol Dorina obrazi ham mavjiddir. Uning tuzgan rejasida Elmira orqali ikki marotaba Tartyufni qo'lga tushurishadi. Birinchi martasida buni eshitgan Organ o'g'lini uydan haydab yuboradi. Ikkinchi martada uning firibgarligiga guvoh bo'lgan Organ uni uydan haydamoqchi bo'ladi. Lekin afsuski u Organni o'zining to'g'ri insonligiga shunchalik ishontirib qo'yanidan u bor mol - mulkini uning nomiga xatlab bergan bo'ladi. U nafs yo'lida Elmiraning qarshiligiga nisbatan shunday so'zlar aytadi:

Ilohdan qo'rqmoqlik bekor

O'zim hal qilurman.(snoska)

U nafs yo'lida o'zi ibodat qilib turgan Ilohdan ham qo'rqmaydi. Asli unda ibodat qilguvchi tangrisi ham yo'q edi. Elmira ularning pinhona muhabbatlarini sezib qolsa bari tugashini aytganida u yana bir bora firibgarligini isbotlaydi:

Ko'rib qolsa ham menga ishonadi, ko'zlarigamas.(snoska)

Agar uning qilmishlaridan qirollik avvaldan xabardor bo'lmaganida Organ bor budidan ayrilib qolgan bo'lardi.

Ikki asar bo'yicha bildirilgan fikrlar bir-biriga qiyoslanganda, ikkala asarda ham ezgulik yolg'on va adolatsizlik ustidan g'alaba qozonadi. Asarlarning o'xshash jihatlaridan yana biri dinni niqob qilib o'zlarining nafslari bo'yicha ish tutganlari qonunlarni o'zgartirib huddi bilmagandek o'zlariga moslab olganliklaridir.

Shuningdek asarlarda do'st obrazlari ham keltirilgan bular Sultonali va xizmatkor ayol Dorina ular asosiy obrazdagi Anvar va Organga doimo yordam beradi. Keyingi bir biriga o'xshash jihatlaridan biri ayollar yoki fitna qurboniga aylanishi mumkin

bo'lgan Ra'no va Elmira ularning farqi Elmira fitnani oshkor qilish uchun xizmat qiladi , Mehrobdan chayon asarida esa Ra'no orqali fitna amalga oshishi kutiladi.

Farqli jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, ikkala asarda ham fitna bor lekin birida yosh bir yigitni yo'ldan olib tashlash kabi yomon maqsadda ro'y bersa ikkinchisida ezgulik yo'lida firibgarni fosh qilish uchun amalga oshiriladi.

Birida mamlakat boshqaruvchilari o'zlari uchun diniy qoidalarni buzib o'tgan bo'lsa keyingida nisbatan boshqacharoq vaziyat ya'ni cherkov ruhoniylari tomonidan qoidalar buziladi.

Tarixdan ma'lumki o'sha davrlar xristian cherkovlarida bo'lib o'tgan, shu asarda tasvirlangan kabi voqealar yuz bergan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda o'sha paytda ruhoniylar muqaddas Injilga ham o'zgartirishlar kiritishgan.

Xulosa

Asarlardan umumiy xulosaga kelsak, avvalo har bir inson diniy va dunyoviy bilimlarni duch kelgan inson yoki narsadan emas balki ishonchli manbaalardan yoki kishilardan o'rganishi lozim. Shundagina inson oqni qoradan xudojo'yni xudosizdan baxilni sahiydan firibgarni donodan do'stni dushmandan oson ajrata oladi. Aks holda asarlarda keltirilgan obrazlar kabi ko'pgina qiyinchiliklarga duch kelishi aniq. Zarur bilimlarni egallashning oson yo'lini qidirmaslik zarurdir, bunga yillab umr , mehnat , sabr orqali erishiladi. Agarda oson yo'ldan borilsa , Organ obrazi singari bir firibgarni ulug' zot deb tan olib , oxirida bor budidan ayrilishi hech gap emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ABDUVALIYEV K. SHARQ VA G'ARB MADANIYATLARIDA DINNING O'RNI VA TA'SIRI//.TADQIQOTLAR jahon ilmiy metodik jurnali |58-son|1-qism
2. Imom G'azzoliy. Ihyou ulumid-din – Qohira: Al-Azhar nashriyoti, 2005.

3. Aliyev, A. Din va jamiyat: Tarixiy va zamonaviy yondashuvlar – Boku: Elm, 2017.
4. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. –Toshkent:Navro‘z.2019.–288b.
5. <https://www.scribd.com/document/849052462/Molyer-Tartyuf-komediya>